

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**OVOZNI YO'LGA QO'YISH  
FAN DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	200000 - Gumanitar soha
<b>Ta'lim sohasi:</b>	210 000 - San'at
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	60211400 – Vokal san'ati: (An'anaviy xonandalik)

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda 1000 talik ro'yxatga kiruvchi **Mukhtar Auezov South Kazakhstan University (Qozog'iston)** ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

<https://auezov.edu.kz/rus/>

**Buxoro-2024**

<b>Fan/modul kodi</b> OYQ1404	<b>O'quv yili</b> 2024-2026	<b>Semestr</b> 1-4	<b>ECTS-Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 2	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Ovozni yo'lga qo'yish	60	60	120
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Ovozni yo'lga qo'yish fani ixtisoslik fanlari ichida eng ahamiyatlilaridan biri bo'lib, uni o'qitishda maqom ijrochilarning ovozini to'g'ri yo'lga qo'yish va sozlash bilan birgalikda ovozni chiniqtirish, ovozni tobora yaxshilanishi bo'yicha zarur ko'rsatmalar berish, nafas, diafragma va umuman ovoz apparati faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida zamonaviy pedagogikadagi mavjud o'qitish uslublari asosida dars olib boriladi.</p> <p>Har bir yosh maqom ijrochisini kamolotga yetkazishda, musiqiy asarlarning g'oyaviy va badiiy tarzda chuqur o'zlashtirishda, o'z, ijrochilik mahoratini va san'atini ko'p sonli tinglovchilarga to'la yetkazib bera olishida "Ovozni yo'lga qo'yish" fani bo'yicha ta'lim berish umumiy tarbiyaning muhim omilidir.</p> <p><b>II. Asosiy amaliy qism (yakka mashg'ulotlar)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-Modul. (1-2 semestr) Ovozni yo'lga qo'yish bo'yicha nazariy va amaliy ko'rsatmalar</b></p> <p><b>1 -mavzu: Nafasni to'g'ri olish yo'llari</b></p> <p>Nafas olish a'zolari haqida tushuncha. Diafragma haqida tushuncha. Ijrochilik nafasi: ko'krak nafas, qorin nafas va aralash nafas turlarining bir-biridan farqi. To'g'ri nafas olish amaliyoti. Nafas mashqlari. Unli tovushlar uchun mashqlarni bajarish. Undosh harflar mashqlarini kuylash. Har bir tovush uchun og'iz ochishni shakllantirish uchun mashqlarni aytish.</p> <p><b>2-Modul. (3-4 semestr) Talaffuzga oid mashqlar. Ovoz ko'lamini kengaytirish.</b></p> <p>Unli va undosh harflar uchun mashqlar bajarish. Har bir harf uchun og'iz ochishni shakllantirish borasida mashqlarni kuylash. Talaffuzi murakkab bo'lgan "r", "z", "ch", "sh", "s", "q" kabi undosh harflar ishtirokida mashqlar bajarish. Bosh va pastki rezonatorlar haqida tushuncha berish. Rezonatorlarning Vazifalari. Ovoz dinamikasini mukammallashtirishda rezonatorlardan unumli</p>			



foydalanish. Jarangdor va jarangsiz ovozlarni alohida mashqlarni amaliy bajarish. Ovozdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Maqom ijrochisining yuqori pardalarda kuylash malakasini oshirish. Ayj pardalarda tashqi ko'rinishini yaxshilash uchun mashqlar.

*Izoh: Yuqorida ko'rsatilgan modullarda muayyan kursning har bir semestrda ovoz uchun bajariladigan mashqlar murakkablashtirilgan holda takrorlanadi.*

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va taysiyalar.**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

#### **I. Ovoz apparatini sozlash mashqlari:**

- 1) Artikulyatsiya (lab, og'iz bo'shlig'i) mashqlari;
- 2) Turli tezaytishlardan foydalanish;
- 3) Legato va stakatto mashqlarini bajarish (nafas mashqlari);
- 4) Vokaliz kuylash ko'nikmalarini shakllantirish;
- 5) Ma'lum bir ashulalarning hanglaridan ovoz mashqi sifatida foydalanish;

#### **II. Professional xonandalar malakasi haqida nazariy ma'lumotlar keltirish:**

- 6) Xonandalikda erkak ovozi turlariga misol keltirish (tik ovoz, nor ovoz, xasta ishkami ovoz...);
- 7) Qo'shimcha tarzda akademik xonandalikda mavjud bo'lgan erkak ovozi turlari haqida ham ma'lumot keltirish (tenor, bariton, bas...);
- 8) Xonandalikda ayol ovozi turlari haqida ma'lumot keltirish;
- 9) Qo'shimcha tarzda akademik xonandalikda mavjud bo'lgan ayol ovoz turlari haqida ma'lumot keltirish (soprano, metstso-soprano, alt);

#### **III. Asarlar ijrosi masalalari (qo'shimcha tarzda);**

- 10) Tavsiya etiladigan asarlar mazmuni haqida ma'lumot keltirib o'tish;
- 11) Asarlarning audio varianti va o'qituvchi ijrosidagi namunasini tinglab o'zlashtirish;
- 12) Mutaxassislik asarlari ijrosida ovoz imkoniyatlarini kengaytirish mashqlari;
- 13) Fortepiano va ovoz uchun yozilgan (asosan romans janridagi) asarlarni kuylash.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mashg'ulotlar:

Auditoriyadan tashqarida talabning darsga tayyorlanishi;

1. Nafas mashqlarini oynaga qarab bajarish;
2. Ixtisoslik fanidan berilgan asarni mashq qilish;
3. Ovoz imkoniyatlarini kengaytirish: Intonatsiya, usul, dinamik belgilarga rioya qilib kuylash;
4. So'zlarni aniq va ravon kuylash ko'nikmalarini o'zlashtirish;



	<p>5. Ashulalarning so'zlarini she'r tarzida o'qish;</p> <p>6. Ovoz sozlash uchun mo'ljallangan adabiyotlarni mustagil o'rganish;</p> <p>7) Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'rganish;</p> <p>8) Taniqli xonanda-ijrochilar yozuvchilarini tinglash va tahlil qilish;</p> <p>9) Konsert chiqishlarini kuzatib boorish;</p> <p>10. Sahna madaniyati va qoidalarini egallash;</p> <p>11. Ijodkorlar bilan suhbatlashish!</p> <p>12. Audio, video yozuvlar jamg'arish va foydalanish;</p> <p>13. Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish.</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ovozlar haqida ma'lumot va ularning tasnifi;</li> <li>- jo'rovozlik va hamnafaslikni o'rganish;</li> <li>- ovozlarni turlarga ajratish va ular bilan ishlash qoidalari;</li> <li>- ovozlar ijrosini mukammal o'rganish;</li> <li>- vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) faoliyati haqida tasavvurga ega bo'ishi;</li> <li>- ovozlarni to'g'ri ishlatilishini;</li> <li>- Jamoaviy ijrochilikda bir xil nafas olishni ta'minlashni;</li> <li>- umumiy ovozlar ko'lamini aniglashni;</li> <li>- maqom ijrochilari sahnada qay tarzda turishi, professional ijroni bilishi va ulardan foydalana olishi</li> <li>- ovozni to'g'ri shakllantirib musiqiy asarlarni ijro etish -ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi kerak,</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- audio va video yozuvlardan foydalanish;</li> <li>- treninglar;</li> <li>- nota o'qish mahorati;</li> <li>- bilaman, bilishni xoxlayman, bilib oldim metodi;</li> <li>- texnik mashglar ustida ishlash;</li> <li>- Ven diagrammasi metodi;</li> <li>- individual ijro yo'llar;</li> <li>- mantiqiy fikrlash;</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil qilish natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>



6.

**Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**  
**Asosiy adabiyotlar**

1. Matyakuboy Sh, An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubiyati, — T., 2015
2. Muhammedova G. Xonandalikdan dars berish uslubiyoti~T., 2017
3. Rasulov O'. An'anaviy xonandalikda o'gitish metodikasi — T., 2006
4. Matyakubov Sh. An'anaviy ijrochilik san'ati tarixi—T., 2019
5. Yo'lchiyeva M. An'anaviy xonandalik~ T., 2018

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi mustagilligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2021-yil 31 avgust.
2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3193. 2017 yil.. 17 noyabr.
- 3, Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalgimiz bilan birga quramiz. T, 2017
4. Mirziyoyev ShM. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nut. T., 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini takomintash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Resoublikasi Konstitutsiyasi qabul ilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T., 2017.
- 6.Mirziyoyev ShM, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini Tivojlantirishning beshta\_ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)
- 7, Bloem-Hubatka D. The old Italian Schol of Singing. A Theoretical and practical Guide. London, 1946
- 8, Miller R.The Structure of singing. System and art vokal texhnique. USA 2016
- 9.A. Lutfullaev "Xalq cholg'ularida ijrochilik: tarix va zamonaviylik" T., Musiqqa nashriyoti 2017.
- 10, The History of Muzikal Instruments USA November (2012).

11. Barbara Kreader, Fred Kern, 'hailli! Keveren, Mona Rejino. 'iano Lessons Book 2001

12. Kpyntseaa T.C, Mozoxona HB, «Cnosapt HHocTpaHHErx MY3bIKAMbHEX repminiosy JI, «Myseixa, 1997,

### Axborot manbalari

1. www.maqomfund.uz — maqom kutubxonasi
2. www.notalar.uz — O`zbekistonning musiqali kutubxonasi
3. http://www.ziyonet.uz
4. www musika uz
5. http://notes.tarakanov.net
6. www.lex.uz
7. www.ziyonet.uz

7. Fan dasturi Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2024 yil 2 iyuldagi 11-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ullar:**  
Y.R.Artikov - "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrası dotsent v.b  
O'.X.Ramazonova - "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrası katta o'qituvchisi  
M.A.Samiyeva - "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrası o'qituvchisi  
B.H.Boltayev - "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

9. **Taqrizchilar:**  
D.Yu.Ruziyev – BuxDU, "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi  
B.I. Mustafoyev – BuxDU, "Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi